



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA EKOLOGIK TARBIYA BERISHDA XALQ PEDAGOGIKASI VA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Tangirqulov Elmurod Aliyarovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti "Boshlang'ich
ta'lim metodikasi" kafedrası o'qituvchisi

e-mail: tangirqulove@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17337894>

Annotatsiya. Ushbu maqolada ekologik tarbiyani ta'lim bilan muvoqlashtirgan tarzda olib borishning muhim shartlaridan biri ekologik bilimlarning milliy qadriyatlar va lokaal ekologik omillarga uyg'unlashtirgan holda bir qator yo'nalishlari yoritilgan. O'quvchilarning boshlang'ich ekologik tarbiyasini shakllantirishga qaratilgan ishonchli mexanizmlar mavjud bo'lib, bu mexanizmlarning har birini takomillashtirishda maktab ekologik ta'limi, oilaviy tarbiya, xalq pedagogikasi, jamoatchilik tarbiyasi va milliy qadriyatlarga xos eng go'zal an'analarni uyg'unlashtirish darkor. Shuningdek, bolaning atrof-muhitga ijobiy munosabatini shakllantirish, uning tabiat elementlarining inson hayotidagi o'rnini ongli ravishda anglashi, olam manzarasi haqida keng yorqin tasavvurga ega bo'lishi haqidagi fikrlar ham o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Milliy qadriyat, tarbiya, ekologik tarbiya, xalq pedagogikasi, tabiat elementlari, olam manzarasi.

Annotation. This article highlights several directions for integrating environmental education with general education by harmonizing ecological knowledge with national values and local environmental factors. Reliable mechanisms aimed at forming students' basic environmental awareness are presented. It is emphasized that improving each of these mechanisms requires integrating school-based ecological education, family upbringing, folk pedagogy, community education, and the most beautiful traditions characteristic of national values. The article also discusses shaping a child's positive attitude toward the environment, developing a conscious understanding of the role of natural elements in human life, and forming a broad and vivid perception of the world around them.

Keywords: National values, education, environmental education, folk pedagogy, elements of nature, worldview.

Аннотация. В данной статье освещены направления организации экологического воспитания в гармонии с образованием, основанной на интеграции экологических знаний с национальными ценностями и локальными экологическими факторами. Представлены надёжные механизмы, направленные на формирование у учащихся начальных экологических знаний. Подчёркивается, что для совершенствования каждого из этих механизмов необходимо объединить школьное экологическое образование, семейное воспитание, народную педагогику, общественное воспитание и лучшие традиции, свойственные национальным ценностям. Также рассматриваются вопросы формирования у ребёнка положительного отношения к окружающей среде, осознанного понимания роли природных элементов в жизни человека и широкого, яркого представления о картине мира.

Ключевые слова: Национальные ценности, воспитание, экологическое воспитание, народная педагогика, элементы природы, картина мира.



Ekologir tarbiyani ta'lim bilan muvoqlashtirgan tarzda olib borishning muhim shartlaridan biri ekologik bilimlarning milliy qadriyatlar va lokaal ekologik omillarga uyg'unlashtirgan holda taqdim etishishi hisoblanadi. Ushbu fikrni Surxondaryo viloyati qishloqlari oilalariga xos bo'lgan ikki qadriyatning barqaror yashab kelayotganlik fakti bilan tushuntirish mumkin. Birinchisi, kekxa otaxonlar istiqomat qiladigan har bir an'anaviy oilada yosh bolalarga "Nonni yerga tashlama – uvul bo'ladi", "Suvga tupurma – yomon bo'ladi" kabi doimiy o'g'itlar orqali Non va Suv tabiiy ne'mat sifatida ma'lum ma'noda ilohiylashtirilgan. Ikkinchidan, Surxondaryo viloyatining tog' va tog'oldi qishloqlarida pedagogikada ekologik tarbiya deb ataladigan jarayonning sof milliy-mahalliy ko'rinishlari hamon bolalar tarbiyasida ustuvorlik qilib kelmoqda. Ya'ni "Jonvorlarga ozor berma – qarg'aydi", "Qushlarning inini buzma – xudodan senga yomonlik tilaydi", "Qaldirg'ochga uyingdan joy ber, chunki u odamning do'sti" kabi diniy-mistik mazmundagi tasavvurlar isbot talab qilmaydigan o'g'itlarga aylanib ketishi natijasida, yosh bolalar ongida o'ziga xos tasavvur hosil qiladi. Shuningdek, xalq o'g'itlari, maqollar, topishmoqlar, millat mutafakkirlari ijodidagi tabiatni asrash mavzusida yozilgan namunalarni sodda ko'rinishga keltirib, ulardan o'rinli foydalanish mumkin. Bu borada, Oybekning "Bolalik" qissasidagi "Ayvondagi ilon" lavhasi, Asqad Muxtorning "Amu" romanidagi "cho'loq bedana" lavhasi, "Ur, to'qmoq" ertagida Laylakvoyning yaxshilik evaziga katta mukofot berishi kabi lavhalarni ta'sirli tarzda bayon qilishi va lavhalar asosida bolalarni o'ylashga, mulohaza qilishga da'vat etuvchi savollar tuzishi kutilgan natijani beradi. Demak, aytish mumkinki, milliy qadriyatlar ruhidagi tarbiya bola ekologik tarbiyasining o'zagini (yadrosini) tashkil qiladi.

Shuningdek, qishloq hududlarida suvdan xo'jalik maqsadlarida pala-partish foydalanish, O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ga kiritilgan yovvoyi o'simliklarni ehtiyojsiz nobud qilishi, bug'doydan bo'shagan maydonlarga takroriy ekin ekish uchun o't qo'yish kabi salbiy yondashuvlar natijasida yuzaga kelgan omillar oqibatida yuzaga kelayotgan lokal ekologik muammolarni bevosita tabiatshunoslik, texnologiya darslarida mavzu uchun tanlash mumkin.

Ekologik tarbiya berish bo'yicha o'qituvchi bajarishi ko'zda tutilgan navbatdagi vazifa boshlang'ich ekologik bilimlarning ongli ekologik maqbul xatti-harakatlarga tatbiq etilishiga erishishdan iborat. Unutmaslik lozimki, bola kundalik vaziyatda duch keladigan ekologik omillarga bildiradigan munosabati, ya'ni u sodir etadigan ekologik maqbul xatti-harakatlar ongli va instiktiv ravishda bo'lishi mumkin.

O'quv fanlari zamiridagi ekologik va aksiologik mazmunni yuzaga chiqarishda savollar, topshiriqlar o'qituvchi tomonidan ijodiylik asosida ishlab chiqilishi, shuningdek, o'quv materialini qiziqarli, hayotiy ma'lumotlar bilan boyitilishi lozim. Bunda quyidagi talablarga javob beradigan savollar, topshiriqlar tuzilishi lozim:

- bolaga tanish manzara va vaziyatlar tasvirlanishi;
- yechim boshlang'ich sinf o'quvchisidan mustaqil fikrlash, mulohazakorlik talab qilishi;
- topshiriqda mahalliy ekologik omillar nazarda tutilishi;
- topshiriq, vazifa va savollar sodda, qiziqarli, motivatsiya shakllantiruvchi, real boqeliklarga asoslangan va eng muhimi, bolani zo'riqtir darajada murakkab bo'lmasligimasligi;
- bolada elementar ekologik bilim, malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish barobarida, unda atrof muhitga empatiya va hamdardlik tuyg'ularini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi lozim.



Ekologik dunyoqarash – bu insonning mo'tadil yashashi uchun lozim bo'lgan tashqi muhitni saqlash hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb masala ekanligini ongli ravishda idrok etish, demakdir. Mohiyatan, shaxsda sog'lom ekologik dunyoqarashning shakllanishi butun jamiyatda ekologik madaniyat qaror topganligini anglatadi, shuning uchun ham ekologik dunyoqarash shakllantirish bosh maqsad sifatida belgilangan ekologik ta'lim va tarbiya davlatning ustivor, hayotiy darajada muhimlik kasb etadigan vazifalaridan biri bo'lmog'i lozim. Ekologik dunyoqarash shakllana boruvchi ko'nikma sifatida bir qator komponentlarni o'z ichiga oladi va mazkur komponentlarning har biri ekologik dunyoqarashning zarur darajada shakllanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi.

Adabiyotlar:

1. "Surxon tongi" gazetasi, 2018-yil, "Ellarni birlashtirgan qadriyat", 32-son
2. Yanshin A. L., Melua A. I. Uroki ekologicheskix proshchetov. M.: Misl', 2004
3. Yermakova D.S. Ekologicheskoe obrazovanie posle urokov / Yermakova D.S. //Dopolnitel'noe obrazovanie. – 2001. – № 12. – S.15-17
4. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera.-T.: O'qituvchi, 1995.
5. [Meliboyev A. «Barcha fanlar hamkorligida (3-sinf «Tabiatshunoslik» darsligi misolida)» Boshlang'ich ta'lim – Toshkent, 2008. - №3. 26-27– B.].
6. Карпенков С. Х. Экология: учебник для вузов. В 2-х кн. Кн. 2. — М., Берлин: Директ-Медиа, 2017. — С.6.
7. Ахатов А. Г. Экология и международное право = Эсологй & Интернационал Лав. — М.: АСТ-ПРЕСС, 1996. — 512 с.